



USMON AZIMNING “YO‘QOLGAN ODAM” KINOQISSASIDA YOSHLAR OBRAZI

Obloyeva Malika Orif qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Imomqulova Gulchehra Norboboyevna,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Usmon Azimning “Yo‘qolgan odam” kinoqissasidagi yoshlar obrazi orqali ularning ichkilikbozligini qoralashdir va u tufayli keladigan talofatlarni ko‘rsatib yoshlarni bundan qaytarishdir. Asar pirovardida ichkilikbozlik oqibatida Davron, Dunyo kabi qahramonlarning pok sevgisi zavol topishi, noto‘g‘ri qadam inson hayotida turli xil qiyinchiliklarga olib kelishi haqida mulohaza yuritimiz.

Kalit so‘zlar: O‘zbek adabiyoti, Usmon Azim, kinoqissa, obraz, detektiv, o‘smirlar, tarbiya.

70-yillar avlodiga mansub ijodkor Usmon Azim serqirra ijod sohibi ekanligi, uning uch adabiy turga mansub xilma-xil janrlarda badiiy jihatdan yetuk asarlar yozib kelayotganligi barchamizga ma’lum. Xususan, ijodkorning dramaturgiyada ham salmoqli asarlar yozganligi e’tirof etishga arzigulikdir. Adib qalamiga mansub “Bir qadam yo‘l“, „Kunduzsiz kechalar“, „Bozor“ ([1997](#)), „Alpomishning qaytishi“ ([1998](#)), „Jazava“ ([2000](#)), „Baxt qushi“ ([2002](#)), „O‘tgan zamon hangomalari“ ([2003](#)) pyesalarning aksari O‘zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan. Shuningdek, uning dramatik turning nisbatan yangi sohasi bo‘lgan kinodramaturgiyada sohasida ham tajribalari mavjud bo‘lib, ular sirasida „Alisher Navoiy“ kinoqissasi ([1990](#)), „Alpomish“ kinodostoni ([1997](#)), „Sevgi“ ([1998](#), shu nomli hikoya asosida) va 2 seriyali „Alpomish“ ([2000](#)) filmlarining ssenariysini sanash mumkin. Xususan, quyida so‘z yuritilayotgan “Yo‘qolgan odam” asari ham kinoqissa hisoblanadi. Ushbu janr epik va dramatik tur belgilarini mujassam etgan yangi janrlardan bo‘lib, unda voqelikning shiddatkor va o‘tkir bo‘lishi asosiy belgilardandir.

So‘nggi yillarda adabiyotimizda kinoqissa degan janr kirib keldi va bu turga mansub asarlar ko‘payib bormoqda. Ayrim internet saytlari va bosma nashrlarda kinoqissani ssenariy sifatida talqin qilish hollari tez-tez uchrab turibdi. Bizningcha,



bunday talqin noto'g'ri, kinoqissa tamomila mustaqil adabiy janr. Fikrimizni isbotlash uchun bir qator kinoqissalar muallifi, iste'dodli yozuvchi Usmon Azim kinoqissalari yuzasidan qisqagina kuzatishlarimizni bayon etamiz. Janr nomidagi kino so'ziga qarab, uni kino olish uchun yaratilgan ssenariy deb o'ylamaslik kerak. Gap ssenariy haqida ketganda shuni ta'kidlash joizki, ssenariy alohida asarlik belgilarini namoyon qilmaydi. Dilmurod Quronov dramatik tur va uning janrlari haqida gapirar ekan, ssenariyga ham to'xtalib o'tadi: "... ssenariy — spektaklning mufassal rejasi, alohida asar emas, ish jarayonida foydalaniladigan yordamchi vosita, xolos." [480-bet]. Kinossenariylar hech qachon o'quvchi uchun yozilmaydi, ssenariy navisning maqsadlari orasida boshidanoq kitobxonga o'rin yo'q. Undan faqatgina rol o'ynovchi aktyorlar va boshqa film ijodkorlari o'zlarining vazifalarini bilib olishadi. Shu jihati bilan ham u to'laqonli asar emas, balki asar, masalan, kino asari yaratishdagi vosita, ishchi material ekanligini namoyon qiladi. Shuning uchun ham ssenariy adiblarning kitoblarida badiiy asarlar bilan yonma-yon o'rin ololmaydi. Kinoqissa esa, avvalboshdan, o'qish uchun mustaqil asar sifatida rejalashtirilgan va shu reja-niyatga muvofiq yaratilgan, shu sababdan mustaqil asarga xos barcha xususiyatlarga ega. Ya'ni u badiiy asar sifatida to'liq shakllangan, tugal va o'z holicha ham badiiy-estetik qimmatga egadir. Demak, ssenariy va kinoqissa tamoman alohida-alohida hodisalardir. Kinoqissa o'zining kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar tizimi, til xususiyatlari bilan yaxlit butunlikdagi badiiy asar, nasriy yo'lda yaratilganligi, qolaversa, asosida epik asar predmeti hisoblangan voqelik yotishi bilan epik tur talablariga to'la javob beradi.

Biz epik turga kiradigan to'laqonli badiiy asar deb ta'kidlayotganimiz, kinoqissa o'zida aks etgan muammolar ko'lami va hayot qamrovi, markazida bir qahramon turishi va asardagi barcha voqea va hodisalar o'sha insonning atrofida yuz berishi jihatidan qissa bilan baravar keladi (Usmon Azimning "Yo'qolgan odam" kinoqissasida Davron, Dunyo "Qiyomat" da Mardon, Gulzoda haqida hikoya qilinadi).

O'z lirikasining jo'shqinligi bilan kitobxonlar e'tiboriga tushgan Usmon Azimning „Yo'qolgan odam“ kinoqissasi ham uning ayni uslubini ko'rsatadi. Ushbu asarga e'tibor beradigan bo'lsak, bilimli ilg'or bir o'quvchining hayot yo'li yoritiladi. Asar bosh qahramoni Davron kompyuter musobaqasida tuman birinchiligini olgani, ko'plab adiblarning asarlarini o'qib chiqqanligi, bo'sh vaqtida tinimsiz kitob o'qiydigan yigit bo'ladi.

O'smirlik-inson hayotining keyingi qismini belglovchi, orzu-umidlar bilan burkangan eng pokiza damlardir. Bunda inson sevgi-muhabbatga, do'stlikka, oilasiga suyanadi. Muxtasar qilib aytganda, inson bu davrda o'z kelajagi orzulari haqida shirin



xayollar og‘ushida bo‘ladi. Biroq buni yo‘qqa chiqarish uchun birgina noto‘g‘ri qadam kifoya. Usmon Azimning “Yo‘qolgan odam” kinoqissasida ana shunday noto‘g‘ri qadam tufayli hayotida ko‘plab qiyinchiliklarga uchragan inson obrazi tasvirlanadi.

O‘z lirikasining jo‘shqinligi bilan kitobxonlar e‘tiboriga tushgan Usmon Azimning ushbu kinoqissasi ham uning ayni uslubini ko‘rsatadi. Ushbu asarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bilimli ilg‘or bir o‘quvchining hayot yo‘li yoritiladi. Asar bosh qahramoni Davron kompyuter musobaqasida tuman birinchiligini olgani, ko‘plab adiblarning asarlarini o‘qib chiqqanligi, bo‘sh vaqtida tinimsiz kitob o‘qiydigan yigit bo‘ladi.

Asar boshlanishida otasining noroziligiga qaramasdan noqobil inson- Jabbor pulxaltaning uyiga bitiruv kechasiga boradi va shu yerda uning hayotidagi chalkashliklar boshlanadi.

Asarda asosiy g‘oya insonni zalolatga olib boruvchi illatlardan biri ichkilikbozlikni qoralashdir va u tufayli keladigan talofatlarni ko‘rsatib yoshlarni bundan qaytarishdir. Asar pirovardida ichkilikbozlik oqibatida Davron, Dunyo kabi qahramonlarning pok sevgisi zavol topadi.

Asar bosh qahramoni Davron-o‘rtahol oilaning kenja farzandi, maktab bitiruvchisi. kollejdagi eng ilg‘or, bilimli o‘quvchidir. U kompyuter musobaqalarida hattoki viloyat birinchiligini oladi. U bo‘sh vaqtida ko‘plab asarlarni o‘qib o‘z vaqtini samarali o‘tkazib yuradi. Biroq asar davomida u ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi va o‘z imkoniyatlarini qo‘ldan boy beradi. Shunday qilib asar davomida u o‘z yo‘lini topishga va xatolarini to‘g‘irlashga intiladi. Ko‘plab yaxshi insonlar yordami bilan kun ko‘radi, asar so‘ngida esa xatolarini tan olib o‘z aybiga iqror bo‘lib qishlog‘iga qaytadi.

Dunyo kollej bitiruvchisi asarda Dunyo obrazini uchratamiz. U ham Davron singari ilg‘or o‘quvchilardan biri, asar davomida biz Davron va Dunyoning bir-biriga ko‘ngil qo‘yganligiga guvoh bo‘lamiz. Biroq Davronning xatolari evaziga ular ajralib ketishadi. Dunyodan ko‘ngli sovigan Dunyo o‘z orzu-maqсадlaridan vos kechadi. Ota-onasining qistovi bilan badavlat xonadonning erkatoiy o‘g‘li Komil Quyonga turmushga chiqadi.

Jabbor pulxalta- bu obraz asar davomida boshqalar tomonidan izohlanib ketadi. Komil Quyoning otasi, pul toppish yo‘lida har qanday qing‘irlikdan qaytmaydigan obraz. Bu obraz asar qahramoni Eshturdi tomonidan xarom bilan halolning farqiga bormaydigan deya ta‘riflanadi. Buning yaqqol namunasi sifatida uning ismiga PULXALTA so‘zining qo‘shib aytilishidir. Asar davomida biz uni o‘simrlarni



ichkilikbozlikka da'vat etganligini va o'smirlarga ichishni boshlab berganini kuzatamiz.

Sobir kollej bitiruvchisi Davronning do'stlaridan biri, tarbiya jihatidan ancha saviyasi past bo'lgan bu obraz o'zining qo'pol, tarbiyasiz va jahldorligi bilan do'stlariga tanilgan. Yosh bo'lishiga qaramasdan ko'zi qonga to'lgan ichkilikbozlik u uchun yangilik bo'lmagan obraz.

Muzaffar Davronning shaharda qo'nim topishiga yordam qilgan obraz. O'z halolliги, odamgarchiligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Asar davomida u Davronni ishga joylaydi, boshpana beradi.

Xulosa qilib aytganda, barcha oilada farzand tarbiyasiga e'tibor qaratilishi, uning orzu-maqсадlariga erishishda ota-onasining ko'magidir. Ichkilikbozlik hozirgi kunda yoshlar orasida ommalashib borayotgan QORA ILLATDIR. Inson o'z umrini behuda ishlarga emas, balki, ilm olish ma'naviyatini boyitish, hunar o'rganishga chorlaydi. Oradan necha yillar o'tib ortga qaraganda „attang” deb qolmaslik uchun vaqtni o'tkinchi hoy-u havaslarga emas ilm olishga sarflash kerak. Usmon Azimning bu asaridan ko'zlangan maqsad ham chuqur va purma'nodir.

Adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. –480-bet.
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2008.
3. Usmon Azim. Jimlik.Yo'qolgan odam (kinoqissa). –T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2012.
4. Usmon Azim. Jimlik.Qiyomat (kinoqissa). –T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2012.